

Compliance with stylistic standards in teacher speech

Chirchik state pedagogical university Faculty of Humanities Uzbek language and
literature direction 25\3-group evening 1-stage students

Rakhimova Saida To'xtasin girl

saidarahimova753@gmail.com

Bahriddinova Kumush Bunyod girl

kbunyodovna@gmail.com

Scientific supervisor: Turg'unpo'latov Diyorbek

Annotation. This article examines the role of a teacher's speech in pedagogical activity, its stylistic formation, and the issues of adherence to speech norms. The article analyzes the fundamental requirements for a teacher's speech: clarity, logic, richness, and, most importantly, the stylistic differentiation of speech according to the situation. Furthermore, the pedagogical and psychological significance of speech culture in shaping the worldview of students and pupils is highlighted.

Keywords pedagogical speech, stylistic norm, speech culture, communication ethics, rhetoric, speech skills, pedagogical mastery.

O'qituvchi nutqida uslubiy me'yorlarga rioya qilish

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tili va
adabiyoti yo'nalishi 25\3-guruh kechki 1-bosqich talabalari

Rahimova Saida To'xtasin qizi

saidarahimova753@gmail.com

Bahriddinova Kumush Bunyod qizi

kbunyodovna@gmail.com

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek.

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik faoliyatda o'qituvchi nutqining o'rni, uning uslubiy jihatdan shakllanganligi va nutqiy me'yorlarga amal qilish masalalari

tadqiq etiladi. Maqolada o‘qituvchi nutqiga qo‘yiladigan asosiy talablar — aniqlik, mantiqiylik, boylik va eng muhimi, nutqning vaziyatga mos ravishda uslubiy tabaqalanishi tahlil qilingan. Shuningdek, nutqiy madaniyatning talaba va o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirishdagi pedagogik-psixologik ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik nutq, uslubiy me‘yor, nutq madaniyati, muloqot etikasi, ritorika, nutqiy mahorat, pedagogik mahorat.

Аннотация. В данной статье исследуется роль речи педагога в профессиональной деятельности, вопросы её стилистической оформленности и соблюдения речевых норм. В статье анализируются основные требования, предъявляемые к речи преподавателя: точность, логичность, богатство и, прежде всего, стилистическая дифференциация речи в зависимости от ситуации. Также освещается педагогико-психологическое значение речевой культуры в формировании мировоззрения студентов и учащихся.

Ключевые слова педагогическая речь, стилистическая норма, культура речи, этика общения, риторика, речевое мастерство, педагогическое мастерство.

Uslub — tilning inson faoliyatining muayyan sohasi bilan bog‘liq vazifalariga ko‘ra ajratilishi. Kishilar faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatishdan bir-birlaridan ma‘lum darajada farq qiladilar. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqning xilma-xil ko‘rinishlarining paydo bo‘lishiga olib keladi. Nutq uslubi tilning vazifasi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham ular vazifaviy (funktsional) uslub deb yuritiladi. Vazifaviy uslub deganda, tildan farq qiladigan qandaydir alohida narsa tushunilmaydi, balki aniq bir adabiy til tarkibi ichida qaraladigan, o‘ziga xos xususiyatlari, xizmat qilish doirasi bilan o‘zaro farq qilib turadigan yordamchi tizim tushuniladi. Vazifaviy uslub nutq ko‘rinishlarining asosiy vazifalariga, ya‘ni aloqa, xabar berish, ta‘sir etish vositasi bo‘lishiga ko‘ra turli

qismlarga bo‘linadi. Adabiy tilning quyidagi vazifaviy uslublari mavjud: 1) so‘zlashuv uslubi; 2) rasmiy uslub; 3) ilmiy uslub; 4) publitsistik uslub; 5) badiiy uslub. Vazifaviy uslubni nomlash va atash ham ularning qanday aloqa doirasida ishlatilganligiga qarab belgilanadi. O‘qituvchi nutqida uslubiy me‘yorlarga rioya qilish.

So‘zlashuv uslubi — kishilarning kundalik norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarining o‘ziga xos amal qilishidir. Vazifaviy uslubning bu turi o‘ziga xos ish ko‘rsatish sharoiti, ya’ni fikr olishuvning bevositaligi, til vositalarini saylab ishlatilmasligi bilan, shuningdek, ohang vositalari, mimika, imo-ishora kabilardan keng foydalanish, oddiy leksik va frazeologik birliklarning, ekspressivemotsional vositalarning keng ishlatilishi bilan ajralib turadi. Masalan, farzand — jujuq, dunyodan o‘tmoq — jon bermoq, imtihondan o‘ta olmaslik — imtihondan yiqilmoq kabi juftliklarning ikkinchisi asosan so‘zlashuv uslubiga xos. So‘zlashuv uslubi fonetik, leksik, morfologik va sintaktik o‘ziga xosliklarga ega.

Rasmiy uslub (rasmiy ish qog‘ozlari uslubi) — hozirgi o‘zbek adabiy tilining rasmiy yozishmalar va yuridik ishlarda amal qiladigan bir ko‘rinishidir. Qonunlar matnlari, farmonlar, buyruq va ko‘rsatmalar, shartnomalar, har xil rasmiy hujjatlar, tashkilotlar o‘rtasidagi yozishmalar rasmiy uslubda yoziladi. Bu uslub boshqa uslubdan lugaviy va grammatik xususiyatlari jihatidan farqlanadi. Rasmiy uslubda so‘z va so‘z shakllarini qo‘llashda muayyan chegaralanishlar mavjud. Xususan, rasmiy ish uslubida kichraytirish, erkalash qo‘shimchalarini olgan so‘zlar, ko‘tarinki, tantanavor yoki shevaga oid so‘zlar, tor doiradagi kishilargina tushunadigan so‘zlar, o‘xshatish, mubolag‘a kabi obrazli tafakkur ifodasi uchun xizmat qiluvchi shakllar ishlatilmaydi. Rasmiy ish qog‘ozlari matnining xolislik, aniqlik, ixchamlik, mazmuniy to‘liqlikdan iborat zaruriy sifatlari undagi o‘ziga xos so‘z qo‘llash, morfologik va sintaktik xususiyatlar orqali ta’min etiladi. Bu uslubdagi gap qurilishi, odatda, tasniflovchi, qayd etuvchi va qaror qiluvchi qismlarning birligiga asoslanadi. Shuning uchun ham rasmiy

ish qog'ozlari (hujjatlar)da nisbatan uzun jumlar, murakkablashgan, uyushiq bo'lakli gaplar ko'p qo'llanadi. Rasmiy gap tarkibida odatdagi so'z tartibiga qat'iy rioya qilinadi. Rasmiy uslubda so'roq va undov gaplar deyarli qo'llanmaydi, asosan, darak va buyruq gaplar ishlatiladi. Matn birinchi shaxs yoki uchinchi shaxs tilidan yoziladi. Rasmiy ish qog'ozlari matnini tuzishda turg'unlashgan, qoliplashgan so'z birikmalaridan keng foydalaniladi. Masalan, buyruqda "... so'm maosh bilan... lavozimiga tayinlansin", yoki xizmat yozishmalarida "Sizga...ni ma'lum qilamiz". "...ga korxonaga kafolat beradi" kabi qoliplashgan tuzilmalar qo'llanishi mumkin.

Ilmiy uslub — fan, texnika va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan vazifaviy uslubdir. Bu uslubda tabiat va ijtimoiy hayotdagi hodisalar aniq ta'riflanadi, tushuntiriladi. Vazifaviy uslubning bu turi terminologik va mavhum leksikaning, murakkab sintaktik tuzilmalarning qo'llanishi, so'zlarning asosan aniq, to'g'ri ma'noda ishlatilishi, maxsus iboralarga egaligi va shu kabilar bilan ajralib turadi. Ilmiy uslubda yana fanning turli sohalariga oid ramz (simvol) va belgilar, raqamlar ham ishlatiladi. Ilmiy uslub o'z ichida quyidagi mayda uslublarga bo'linadi: ilmiy ish uslubi, ilmiy-texnik uslub, ilmiy-ommabop uslub, ilmiy-publitsistik uslub. Fanning u yoki bu sohasiga tegishli tushunchalarni ifodalovchi atamalarga boyligi ilmiy uslubning eng asosiy xususiyatlaridan biridir

Publitsistik uslub vazifaviy uslubning bir turi bo'lib, u ijtimoiy, siyosiy so'z va iboralarning qo'llanishi, janrlarning xilma-xilligi va buning natijasida til vositalaridan uslubiy foydalanishning rang-barangligi va shu kabilar belgilar bilan xarakterlanadi. Publitsistik uslub ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarda, vaqtli matbuotda, siyosiy chiqishlarda, majlislardagi nutqlar va shu kabilarda o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy-siyosiy bilimlarni targ'ib qiluvchi va keng xalq ommasiga yetkazuvchi vosita sifatida bu uslub tilining rang-barangligi bilan kishilar ongiga ko'proq ta'sir etadi. Publitsistik uslubning yana bir xususiyati shundaki, unda qisqalik asosiy o'rinni egallaydi, ya'ni qisqa, lo'nda,

tushunarli, yorqin, ixcham tilda yozish asosiy talablardan hisoblanadi. Publitsistik uslubda til vositalaridan foydalanishda muallifning individual uslubi deyarli ajralib yoki sezilib turadi. Ayniqsa, bu holat ocherk, felyeton, badiiy publitsistik makrlarda tez ko'zga tashlanadi. Badiiy uslubda ham bu holat mavjud; rasmiy uslubda esa bunday xususiyat yo'q. Publitsistik uslub ba'zi qo'llanma va ilmiy adabiyotlarda "ommabop uslub", "matbuot uslubi" kabi atamalar bilan ham nomlanadi.

Badiiy uslub — tilning kommunikativ va estetik vazifalari birligi bilan boshqa uslubga xos unsurlardan keng foydalanishi, ekspressiv va tasviriy vositalarning ko'p ishlatilishi, so'zlarning obrazli, ko'chmametaforik qo'llanishi va shu kabi belgilari bilan ajralib turadi. Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha lug'aviy birliklarning ishtirok etaverishi va ularning muhim bir vazifaga — estetik vazifani bajarishga xizmat qilishini badiiy nutq uslubining o'ziga xos xususiyati deb qarash kerak bo'ladi, chunki ana shunday imkoniyat boshqa vazifaviy uslubda chegaralangandir. Adabiy tilda dialektizmlar, jargonlar, varvarizmlardan, dag'al so'zlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lmagani holda ularni badiiy uslubda o'rni bilan qo'llash mumkin. Vazifaviy uslubning hech birida til o'zining tuzilish jihatlari, lug'at tarkibi, ya'ni so'zning ma'no boyligi va rang-barangligini, to'g'ri va ko'chma ma'nolarni badiiy nutq uslubidagichalik namoyish qila olmaydi, grammatik qurilishi, ya'ni gaplarning barcha tiplari bilan ishtirok eta olmaydi. Badiiy adabiyotning barcha janrlarida so'z ishlatish va so'z tanlash imkoniyatlariga bir mezon bilan yondashib bo'lmaydi. Har qaysi adabiy janrning tasvir usuli, so'z tanlash yo'sini shu janrdagi asarning umumiy mavzusiga, janr turiga bog'liq bo'ladi. Masalan, bayon shaklida yozilgan roman, hikoyaning til vositalari bilan satirik yoki yumoristik asarning til vositalari bir xil emas. Bulardan tashqari, sinonim so'zlarning u yoki bunisidan foydalanish ham badiiy asar janriga bog'liq. Masalan, bashar, samo, oraz, mujda so'zlari, asosan, nazmda qo'llanadi. Nasrda yoki so'zlashuv nutqida esa bularning ma'nodoshlari — odam, osmon, yuz, shamol, xushxabar so'zlari keng qo'llanadi. Badiiy nutq uslubida yozilgan asarlarni tasviriy vositalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Uslubiy figuralar deb ataluvchi tasvir vositalari — inversiya, takror, o'xshatish, sifatlash, metafora, jonlantirish, antiteza, gradatsiya, ellipsis, ritorik so'roqlarning badiiy uslubda faol qo'llanishi bu uslubning o'ziga xos tarkibi mavjudligini ko'rsatadi. Til

vositalarining vazifaviy chegaralanishi ularning nutq jarayonida ham farqlash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

O'qituvchi murakkab fikrlarni ham sodda va tushunarli qilib yetkazishi kerak. Ortacha darajadagi o'quvchi ham tushuna oladigan til ishlatilishi muhim. Nutq ketma-ket, tartibli va bog'langan bo'lishi zarur. Fikrlar bir-biriga uzviy ulanib borishi kerak. Ortiqcha so'zlar, keraksiz takrorlardan qochish kerak. Har bir gap aniq ma'noga ega bo'lishi lozim. O'qituvchi nutqi jonli, qiziqarli bo'lishi kerak. Misollar, iboralar, taqqoslashlardan foydalanish o'quvchini jalb qiladi. Shevaga xos so'zlar, jargon va noto'g'ri talaffuzdan saqlanish zarur. To'g'ri talaffuz va urg'u muhim ahamiyatga ega. Juda murakkab, chalkash gaplardan foydalanish, bir xil so'zlarni ko'p takrorlash, noo'rin hazil yoki noo'rin iboralar ishlatish, o'quvchi yoshiga mos kelmaydigan terminlardan foydalanish O'qituvchi nutqini takomillashtirish yo'llari: Badiiy va ilmiy adabiyotlarni muntazam o'qish, nutq ustida ishlash (diksiya, talaffuz mashqlari), tajribali pedagoglar nutqini kuzatish, o'z nutqini yozib, tahlil qilish O'qituvchi nutqida uslubiy me'yorlarga rioya qilish — samarali ta'limning asosiy omillaridan biridir. To'g'ri, ravon va ta'sirchan nutq orqali o'qituvchi nafaqat bilim beradi, balki o'quvchilarda nutq madaniyatini ham shakllantiradi.

1. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.

2. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. Toshkent, 2022.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tavsiya etilgan pedagogika va tilshunoslik darsliklari.

4. Pedagogik mahorat. Toshkent: Fan nashriyoti.

5. O'zbek tilining imlo va uslubiy me'yorlariga oid amaldagi qo'llanmalar

Iqtibos 1. [50-60-betlar]

Iqtibos 2. [90-91-betlar]